



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 DEKABR
№35

CONFERENCES.UZ

**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
8-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-8**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 43 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Ergasheva Klara Qurbonovna “HAYRAT-UL ABROR”—FALSAFIY-DIDAKTIK TA’RIF VA TAVSIFLARGA BOY ASAR	7
2. Muhabbat Xolnazarovna Eshchanova ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY INTERFAOL USLUBLAR VA O’YINLARDAN FOYDALANISH	9
3. Fayzullayeva Muhayyo Raxmatillayevna BADIY MATN XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	10
4. Otamirzayeva Xulkar Mamasoliyevna ERKIN VOHIDOVNING HAYOTI VA IJODI	12
5. Sharipova Xurmajon Xikmatovna ADABIYOT DARSLARIDA “GO’RO’G’LINING TUG’ILISHI” DOSTONINI O’RGANISH	14
6. Tangriyeva Ozoda Allabergenovna ADABIYOT DARSLARIDA KO’RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	16
7. To’yqulova Xolida Rustamovna UVAYSIY SHE’RIYATIDA TALMEH SAN’ATINING QO’LLANILISHI	18
8. Uzakbaeva Gulzira Joldasbaevna BERDAQ QARAQALPAQ ADEBIYATINING MAQTANIHI	20
9. Sharipova Mushtariy Ismoilovna TA’LIM SIFATINI OSHIRISH: MUAMMO, YECHIM VA ISTIQBOL	22
10. Matnazarova Mavluda, Babadjanova Dilnoza YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIVAVIY AHAMIYATI	24
11. Rajabova Rohatoy, Abdullayeva Fazilat ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	26
12. Sobirova Anajon, Raximova Aziza MAQOLLAR - INSONNI TARBIVALAYDIGAN VOSITA	28
13. Bozorova Gulrux Faxriddinovna LUTFIYNING “XOH INON, XOH INONMA” RADIFLI G’AZALINING TAHLILI	30
14. Muqimova Muxlisa Murodullayevna ADABIYOT DARSLARIDA QO’LLANADIGAN USULLAR HAMDA ULARNING AFZALLIKLARI	31
15. Muqimova Shozoda UVAYSIY IJODI VA UNDA USTOZ VA SHOGIRD AN’ANALARI	33
16. Narziyeva Tursunoy Qosimovna RUBOIY – MUMTOZ SHE’RIYATNING LIRIK JANRI	34
17. Bozorova Gulzira Sayfulloyevna MUHAMMADSHARIF GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARINI O’RGATISH BO’YICHA TAVSIYALAR	35
18. Bozorova Nargiza Sayidovna ADABIYOT DARSLARIDA XALQ DOSTONLARI, XUSUSAN, “KUNTUG’MISH” DOSTONINI O’RGANISH BO’YICHA USLUBIY TAVSIYALAR	37
19. Hakimova Barchin Qo’ziyevna ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI ULARNI NUTQINI O’SIRISH	39
20. Shirinova Zuxro Shuhrat qizi ADABIYOT DARSLARIDA IJODIY YONDASHUVCHI VA MUNOZARALI USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI ULARNI KITOBXONLIKKA YO’NALTIRISH	41



АДАБИЁТ

“HAYRAT-UL ABROR”—FALSAFIY-DIDAKTIK TA’RIF VA TAVSIFLARGA BOY ASAR

Ergasheva Klara Qurbonovna,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani 28-maktab
ona tili va adbiyot fani o’qituvchisi
Telefon:+998 936625177

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonida shoir o’z davri uchun zarur bo’lgan biror ijtimoiy-siyosiy yoki axloqiy muammolarni qalamga olganligi va bu asarning didaktik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: Muqaddima, maqolat, she’riy hikoya, saxiylik, rostgo’ylik, yolg’onchilik, Sher, Durroj, “So’z ta’rifidakim”, inson, maxluqot.

Buyuk mutafakkir, so’z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Xamsa” asarisining yaratilishi o’zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi eng katta voqealardan biri bo’ldi. Navoiyga qadar hech kim o’zbek tilida bunday ulkan asar yozishga jur’at eta olmagan edi. Navoiy “Xamsa” asarining muhim bir xususiyati shundaki, undagi dostonlarni mustaqil asarlar sifatida mutolaa qilish mumkin.

“Xamsa”ning birinchi dostoni — “Hayrat-ul abror”da falsafiy-didaktik ta’rif va tavsiflar shunday san’atkorona mahorat bilan ifoda etilganki, har bir voqelik tasavvurimizda jonlanadi go’yo...

Alisher Navoiy “Hayrat-ul abror” asarining muqaddima qismiga oid bir necha boblardan tashqari 20 maqolat, har bir maqolatga oid 20 she’riy hikoyadan tashkil topgan bo’lib, maqolatlarning har birida Navoiy o’z davri uchun zarur bo’lgan biror ijtimoiy-siyosiy yoki axloqiy muammolarni qo’yadi, uni o’z davridagi hayotdan, ijtimoiy tabaqalarning ahvolidan kelib chiqib chuqur va atroflicha tahlil qiladi va unga o’z gumanistik munosabatini bildiradi. Jumladan, dostonning beshinchi maqolatida shoir saxiylikni va saxiy kishilarni madh etadi, ularni hech qachon xasislikka qilmaslikkachaqiradi. Shubilan birganomchiqarishuchun boylikni sochib yuborish qattiq qoralanadi:

Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun,

Naqd etak birla mubohot uchun,

Aql hisobidin erur bas yiroq.

Buxl bu judungdin erur yaxshiroq. Buyuk so’z san’atkori asarining o’ninchi maqolatida rostgo’ylik va yolg’onchilik haqida o’z mulohazalarini bayon qiladi. Navoiy ro’sstgo’y kishining nazari ham to’g’ri bo’ladi, yolg’onchi kishi esa xuddi o’g’ri kabidir deydi:

Rostdur ul kim, nazari to’g’ridur,

Kim iligi egridur, ul o’g’ridir.

Maqolatda yolg’on so’zlashni odat qilgan kishining bu yomon fe’lini oxiri el bilib olishi va yolg’onchiligi uzoqqa bormasligi, yolg’onchining bu ishidan xalq g’ofil bo’lsa ham, lekin Tangri o’zi bu holdan voqif bo’ladi, bu elga qancha maxfiy bo’lmasin, yolg’on baribir o’zini oxirida ma’lum qiladi, oqibatda yolg’on so’zlovchi kishi qancha rost so’zlasa ham unga xalq ishonmasligi ta’kidlanadi:

Kimki o’zi ayladi yolg’on so’zin,

Kizb, der el, chin desa, qolg’on so’zin.

Sidq xitobi yana yonmas anga,

Chin desa ham, xalq inonmas anga.

Kimki chini el aro yolg’on durur,

Yolg’oni chinliqqa ne imkon durur?

Har qanday holatda ham, chin gapirishning iloji bo’lmasa ham, yolg’on gapirmaslik kerakligi shunday ta’kidlanadi:



Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

Ulug' mutafakkir shu o'rinda "Sher bilan durroj" hikoyatini keltirib, Durrojning chin gapirish o'rniga yolg'on gapirib, bir falokat tuzog'iga ilingani, Sher Durrojning yordam so'ragan ovozi eshitib, chin so'zni yolg'on deb o'ylab, uni balo tuzog'idan xalos etmaganini bayon qiladi.

"So'zda, Navoiy, nima desang chin degil,

Rost navo nag'mag'a tahsin degil", -deya shoir odamlarni rost so'zlashga chaqiradi.

Dostonning beshinchi maqolati "Odob haqida" bo'lib, unda shunday ibratomuz fikrlar bayon etiladi: "Elga molu dunyo, sharaf-shon, obro' bo'lmay, hayo bilan

odobgina sharaf hisoblanadi. Chunki yog'inning boshlanishi hayo bo'lganidek, yog'inning har qatrasini tuprog'ni kimyoga aylantiradi.

Odobsiz kishilar izzatli bo'lmaydilar. Baland, osmon bu xil kishilarni pasaytirib qo'yadi."

Ushbu bobda shoir bolaga ism qo'yish, unga ta'lim berish, ilm va odob o'rgatishda yaxshi muallim topishni ta'kidlaydi.

Bolani tarbiyalashda unga shafqat ko'rsatish, uni taqdirlab borish darkor, lekin bu xil ishlar: maqtash, mukofotlash haddidan oshib ketsa, faqat ziyon bo'ladi, deydi Navoiy.

Buyuk alloma ota-onani ulug'lash, hurmat qilish, qadriga yetishni uqtirib shunday deydi: Boshingni ota qoshig'a fido aylab, jismingni ano boshig'a sadqa qilgil. Ikki jahoningga rohat istasang, ushbu ikki zotning rizoligini olgil. Tunu kuningni yoritmoq uchun birini oy, birini quyosh deb anglagil."

Mazkur maqolatda Navoiy qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni uqtiradi: "Qarindoshlarningning barchasi bilan doimo munosabatni uzmay, ulug'rog'iga xizmat qil, kichikroqlariga shafqat ko'rsatgil. O'zing bilan tengqur

deb hisoblaganlaringga ham ehtirom ko'rsatgil. Qilgan mehnatingni hecli qachon yuziga solmagil, hurmatsizlik qilib hech qachon diliga ozor bermagil."

Umuman olganda, "Hayrat-ul abror" insonlarga odamiylikdan saboq beruvchi asardir. Bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, tafakkurimiz boyiyidi, ma'naviyatimiz yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Hayitmetov. Hayrat-ul abror (Nazmiy va nasriy bayoni).
2. Alisher Navoiy. Hayrat-ulabror. (www, Ziyonet.uz)
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. 1986.
4. A'zamxon Qozixo'ja. "Hayrat-ul abror" hayratlari. (www. Kh-+davron.uz)
5. Alisher Navoiy. Hayrat-ulabror. (Dostonning ixcham nasriy bayoni) T. 2009.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY INTERFAOL USLUBLAR VA O'YINLARDAN FOYDALANISH

Muhabbat Xolnazarovna Eshchanova,
Xorazm viloyati Bog'ot
tumani 38- maktab
eshchanovamuhabbat80@gmail.com

ANNATATSIYA: Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim jarayonlariga va ta'lim beruvchi o'qituvchilarni rag'batlantirishga katta e'tabor qaratilmoqda, bu esa muallimlarga katta ma'suliyat yuklaydi. Ushbu maqola ona tili va adabiyot darslarini samarali tashkil etishda katta ahamiyat baxsh etadi.

KALIT SO'ZLAR: Metodika, interfaol dars, "So'zma-so'z" o'yini, "tarif" vaijodkor, "So'z ohangrabosi" usuli.

Ta'lim jarayoni uning rivojlanishi va samarali kechishiko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotga bog'liq. Dars jarayonida o'yinlar bu muhitni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi bilim bersh kichik guruh a'zolarining ijodiy qobiliyatini rag'batlantiradi. O'yinlarni asosan darsning kirish va yakuniy qismida o'tkazish mumkin.

"So'zdan-so'z top" o'yini. Bu o'yinda bir so'zdan bir necha so'zlar keltirib chiqarish talab etiladi. Bu o'yin turi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga izlanishga topqirlikka undaydi. Bu o'yinni ma'lum bir mavzu bilan bog'liq holda o'tkazsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat *Innovatsiya* (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

"Ta'rif va ijodkor" usuli.

Bu usuldan foydalanishda sinf guruhlariga bo'linib, oldindan topshiriqlar beriladi. Guruhlar shartli ravishda nomlanadi, masalan, "Ta'rif beruvchilar" va "Ijodkor" guruhi. Birinchi guruh ikkinchi guruhga ta'riflarni aytadi. Shundan so'ng guruhlar ushbu ta'rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topadi. Agar birinchi berilgan ta'rifdan so'ng darrov bu ta'rifning qaysi yozuvchi yoki shoirga tegishli ekanligini topishsa, - 5 ball, ikkinchi ma'lumotdan so'ng topishsa, - 4 ball va uchinchi urinishda topsalar - 3 ball yig'ishadi. O'qituvchi ta'rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topgan guruhdan yana ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar qo'shimcha qilishini so'raydi va baholab boradi. Bu metod orqali har bir o'quvchi ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, 8-sinf adabiyot darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin.

"So'z ohangrabosi" usuli

Mazkur usuldan adabiyot darslarida, xususan, maqol, topishmoq va she'rlar, ona tili darslarida so'z turkumlari, gap bo'laklari bo'yicha o'tilayotgan mavzularni uyg'unlashtirishda foydalanish mumkin. O'quvchilar kichik-kichik to'rt guruhga bo'linib olishadi va guruhlariga "Maqol", "Topishmoq" va "She'r" singari nomlar tanlashadi. 8-sinf ona tili darsida gap bo'laklari mavzusi o'tilganda mazkur usuldan quyidagicha foydalansa bo'ladi: birinchi guruh maqol aytganda, ikkinchi guruh aytilgan maqoldagi gap bo'laklarini topib, tahlil qiladi va o'zlari uchinchi guruhga topishmoq aytishadi. Uchinchi guruh o'z navbatida topishmoqni tahlil qilib, birinchi guruhga she'r aytadi va musobaqa shu zaylda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qurbonov .Sh. Ye. "Ta'lim sifatini boshqarish" -T.:Sharq,2006.
2. Hasanov .J.,Niyozov.G'. "Pedagogika fanidan izohli lug'at" -T.:Fan va texnika.



BADIIY MATN XUSUSIYATLARI VA TAHLILI

Fayzullayeva Muhayyo Raxmatillayevna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti o'qituvchisi

Tel.: +998(97)7572706

Email: muhayyo.fayzullayeva.93@mail.ru

ANNOTATSIYA: Badiiy matn murakkab ko'p qatlamli tuzilma ekanligidan kelib chiqib, uni tahlil va talqin qilish ham muvofiq holda murakkab va ko'p bosqichli jarayon sanaladi. Mazkur maqolada badiiy matn xususiyatlari, kategoriyalari hamda badiiy matn tuzilishi yuzasidan fikr va mulohazalar qamrab olingan.

KALIT SO'ZLAR: badiiy matn, konseptual dunyoqarash, implitsitlik, tasviriylilik, interpretatsiya qilish

Badiiy matn insonlar orasidagi alohida ahamiyatga ega muloqot turlaridan biri bo'lib, ko'plab tilshunoslar badiiy matn fenomeni ustida izlanishlar olib borganlar. Masalan, V.V. Vinogradov, B.A. Larin, G.O. Vinokur, R.O. Jakobson badiiy matnni boshqa muloqot turlaridan o'zining bir necha xususiyatlariga ko'ra tubdan farq qilishi haqida o'z ilmiy izlanishlarida ta'kidlab o'tganlar. Shu o'rinda yuqorida tilga olingan qanday xususiyatlar badiiy muloqotni boshqa muloqot turlaridan farqlab turadi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Galperin badiiy muloqotning quyidagi xususiyatlarini keltirib o'tgan: 1) uslubiy vositalar yordamida aniq va asl tasvirlarning ifodalanishi; 2) so'zlarning kontekstual hamda birdan ortiq lug'aviy ma'nolarni aks ettirishi; 3) badiiy matnda foydalanilgan so'zlarning oz yoki ko'p miqdorda muallif konseptual dunyoqarashini ifodalashi; 4) leksik va sintaktik til birliklaridan uyg'unlik, ya'ni o'zaro o'xshashlik asosida foydalanilishi.

Yuqorida keltirib o'tilgan badiiy muloqot xususiyatlari badiiy matn kategoriyalarini asoslashga yordam beradi. Badiiy matn kategoriyalari deganda, matnni adabiylik holatiga monand kelishida hissa qo'shuvchi elementlar tushuniladi: birinchidan, badiiy matnlar hissiy sayqallangan bo'lib, undan ko'zlangan birlamchi maqsad o'quvchi his-tuyg'ulariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazishdir. Zero, his-tuyg'ular tug'yoni asosan badiiy matnda o'z ifodasini topadi (Shaxovskiy, 1978); ikkinchidan, badiiy matn tasviriylilik xususiyatiga ega bo'lib, u ko'pincha stilistik vositalardan metafora, epitet, antropomorfizm va boshqalar orqali aks ettiriladi (Ashurova, 2015). Muhimi shundaki, badiiy matn real hayotiy voqealarni emas, balki kishi tasavvurida hayoliy dunyoni qurib beradi. Real va noreal hayot tasviridagi paralellik esa konseptual metafora orqali yuzaga keltiriladi; uchinchidan, implitsitlik badiiy matnning navbatdagi muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra muallif badiiy matn orqali o'quvchga yetkazib bermoqchi bo'lgan hamma ma'lumotlar ham oshkora, to'g'ridan to'g'ri ifodalanmaydi. Bu esa o'z navbatida badiiy matnning konseptual jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlab beradi. Uslubiy til vositalari (alliteratsiya, epitet, metafora, litota, giperbola, kinoya va boshqalar) badiiy matnning implitsit qatlamini yaratishda ko'maklashadilar (Ashurova, 2015).

Badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning ko'p qirrali va qatlamli tuzilishidir. Badiiy matn tuzilishi yuzasidan turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ba'zi tadqiqotchilar sirtqi va ichki qatlamni farqlaydilar (Turaeva, 1986). Sirtqi qatlam - bu badiiy matndagi voqealar rivojining lingvistik birliklar yordamida verballashuvi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu qatlam tilning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik qatlamlari integratsiyalashuvi orqali yuzaga keladi. Ichki qatlam esa badiiy matnning negizidagi konseptual ma'lumotni, ya'ni muallifning kitobxondan interpretatsiya qilishini talab etgan implitsit xabarni o'z ichiga oladi.

Demak, ichki qatlam muallifning dunyoqarashi, dunyoga nisbatan estetik nazarlari va axloqiy qadr-qimmat bo'yicha tushunchalarini gavdalantiradi. Bir tomondan, ichki qatlam til vositalarini o'ziga moslashtirgan holda verballashuvini talab etsa, ikkinchi tomondan, sirtqi qatlamda foydalanilgan til birliklari ichki qatlamda o'quvchi e'tiboriga birgina lug'aviy ma'nodan holi bo'lgan yangi konseptual ma'nolarni aks ettirishi inobatga olinsa, sirtqi qatlam ichki qatlamga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Qisqacha aytganda, badiiy matn tarkibiy qismlarini asoslash muammosiga nisbatan turlicha yondashuvlardagi quyidagi holatlarni umumlashtirish mumkin: 1) badiiy matn murakkab, ko'p tarmoqli tuzilishga ega; 2) badiiy matn tuzilishini tashkil etuvchi elementlar o'zaro bog'liqlik, shartlilik va bir-birini to'ldirib turish kabi munosabatlarda bo'ladilar; 3) badiiy matnning har



bir qatlamining mohiyati va o‘ziga xosligi ham lisoniy, ham ekstralingvistik omillarning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive linguistics. – Tashkent: Vneshinvestprom, 2018. –160 p.
2. Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. — Tashkent, Turon-Iqbol, 2016. – 316 p.
3. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of literary text. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 324 p.
4. Galperin I.R. English Stylistics. 3rd edition, Moscow: Visshaya shkola, 1981



ERKIN VOHIDOVNING HAYOTI VA IJODI

Otamirzayeva Xulkar Mamasoliyevna

NamDU Adabiyotshunoslik fakulteti 1-kurs magistranti

Namanagan viloyati Kosonsoy tumani

20-son maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining atoqli adiblaridan biri, shoir, yozuvchi Erkin Vohidovning hayoti va ijod yo'liga nazar soldik.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, shoir, yozuvchi, adabiyot, she'r, “Yoshlik” jurnali, g'azal, qasida, muxammas, asar, muhabbat, nafrat.

Zamonaviy o'zbek milliy adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ildi. Otasi Cho'yanboy Vohidov Ikkinchi jahon urushidan keyin Toshkentga qaytib, tez orada shu yerda vafot etdi. Onasi Roziyaxon Vohidova (Sohiboyeva) ham dunyodan o'tib, bo'lg'usi shoir tog'asi Karimboy Sohiboyev tarbiyasida qoldi.

E. Vohidov Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti)ning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Endilikda u adabiyotni tom ma'noda chuqur o'rganishga kirishadi. Buyuk ijodkorlarning asarlarini berilib o'qir ekan, ulardan badiiy mahorat sirlarini, so'zga mas'uliyat hissini, soddalik va ravonlikni o'zlashtirishga intiladi.

Erkin Vohidov universitetni tugatgach “Yosh gvardiya”, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotlarda, “Yoshlik” jurnalida ishladi, o'zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini chop etishda faol ishtirok etdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Xalqaro aloqalar va munosabatlar qo'mitasi rahbari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, O'zbekiston Respublikasi Senati a'zosi sifatida faoliyat yuritdi.

Uning birinchi she'ri 14 yoshida, 7-sinfda o'qib yurgan kezlarda chop etildi.

U 16 yoshga kirganda «Manzara» nomli she'ri bosildi. Unda tabiat go'zalligi samimiy tasvir etilgan bo'lsa, ko'p o'tmay, u do'stlariga qarata:

Istaymanki, xurramlik bo'lsin,

SHo'x qahqaha bog'lasin qanot.

Kuy shalola yanglig' quyilsin,


Qo'shiq bo'lib tuyulsin hayot, -

deb, ijodning katta karvoniga o'zining yaxshi niyati, katta umidi, pokiza qalbi bilan kirib keldi. “Tong nafasi” (1961), “Mening yulduzim” (1964) kabi dastlabki to'plamlarini nashr ettirdi.

E. Vohidov ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlarga qo'l urib, mumtoz adabiyot tajribalarini yanada boyitish, yanada mukammallashtirishga intildi. Ayniqsa, “Yoshlik” (1969) devoniga kirgan she'rlar bu jihatdan e'tiborlidir.

Shoir xuddi shu davrdan boshlab dunyo kezdi, dunyoni ko'rdi, dunyoni tanidi. Ana shu taassurotlari asosida “Tirik sayyoralar” (1978), “Sharqiy qirg'oq” (1981) kabi she'riy to'plamlarini yaratildi. Inson taqdiri, uning baxti va kelajagi shoir ijodining bosh mavzuiga aylandi.

Uning “Kelajakka maktub” (1983), “Yaxshidir achchiq haqiqat” (1992) to'plamlariga kirgan she'rlarida haqgo'y va bedor insonni kamol toptirish g'oyasi yetakchilik qiladi.



Shoirning “Orzu chashmasi” (1964), “Nido” (1964), “Palatkada yozilgan doston” (1966), “Quyosh maskani” (1972), “Ruhlar isyoni” (1980), “Ko‘hinur” (1982) kabi liro-epik asarlari, “Oltin devor” va “Istanbul fojeasi” kabi she‘riy dramalari katta ijodiy mehnat mahsuli sifatida xalqimizning ko‘ngil mulkiga aylangan.

Erkin Vohidovning to‘rt jildlik “Saylanma asarlar”i, “Orzuli dunyo” (2010), “Tabassum” (2012), “Yangi she‘rlar” (2015) she‘riy to‘plamlari adabiyot muxlislari uchun bebaho tuhfa bo‘ldi.

Shoir asarlarida hayotga, go‘zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning ilk dostoni – «nido» da insoniyatga og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralansa, keyinroq bitilgan «Ruhlar isyoni» dostonida xalqlar, millatlar, dinlar o‘rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan. Bu esa shoir ijodida insonparvarlik hamisha bosh mavzu bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi.

U ko‘plab mashhur jahon shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Xususan, E. Vohidov tarjima qilgan rus shoiri Sergey yesenin she‘rlari, nemis shoiri Gyotening «Faust» asari o‘zbek adabiy muhitida katta hodisa bo‘ldi.

Erkin Vohidov 2016-yil 30-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

U 1996-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov adabiyotimiz va ma‘naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan asarlari, shuningdek, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash yo‘lidagi faol xizmatlari uchun “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoniga sazovor bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari”. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2016.

2. www.arboblaz.uz

3. www.google.com



ADABIYOT DARSLARIDA “GO’RO’G’LINING TUG’ILISHI” DOSTONINI O’RGANISH

Sharipova Xurmajon Xikmatovna

Xorazm viloyati Bog’ot tumanidagi
39-son umumta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darslarida xalq og’zaki ijodining durdona asarlaridan biri bo’lgan “Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostonini o’rganishda jadvallardan foydalanish va xalq maqollarining qo’llanishini ko’rib o’tamiz.

Kalit so’zlar: Go’ro’gli, adabiyot, xalq og’zaki ijodi, doston, ma’naviy me’ros, maqollar, qahramonlar.

Xalq dostonlari asrlardan buyon sayqallanib rivojlanib borgan. Bugungi kunda ham yoshlarga ibrat bo’lishga arziqli xalq og’zaki ijodi dostonlari o’rganilib kelinmoqda. Bu dostonlarni o’quvchilarga tushuntirib bersak, qiziqтира olsak, o’zligimizni anglash ota-bobolarimiz merosini o’rganish, ma’naviyatimizni yuksaltirish uchun yana bir qadam qo’ygan bo’lar edik.

Turli manbalarda keltirilishicha Go’ro’g’li turkumidagi dostonlar oltmishdan ortiq. Bu dostonlar xalqimiz tarixi ma’naviy qiyofasini aks ettirgani bilan biz uchun qadrlı.

Maktabda 11-sinf o’quvchilari uchun adabiyot darsligi aynan “Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostoni bilan boshlanganligi ham bu adabiyot durdonalariga alohida e’tibor qaratilganligidan dalolat beradi. O’zbek xalqining qadim tarixdagi yashash tarzi, urf-odatları bu dostonda aks etgan. Hozirgi zamonimizda ham doston o’z qimmatini yo’qotmagan. Buni maqollar misolida ko’rib chiqmiz.

Xalqimiz hayot tarjibasidan kelib chiqib, turmushning achchiq-chuchugini totib, aql ko’zi bilan ko’rib xulosa chiqargan va shu fikrlar maqollar, matallar va hikmatli so’zlarda aks etgan. “Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostonida ham ko’plab shunday maqol va matallar keltirilgan. Darslikdagi jadval asosida, uni davom ettirib shulardan ayrimlarini izohlab o’taman:

Dostonda qo’llanilgan maqol	Uning hozirgi varianti	Dostondagi vazifasi	Qo’shimcha izohlar
“Dushmaning xas bo’lsa ham qo’rq”	Dushmaning sichqoncha bo’lsa ham qo’rq.	Zangar podshosi Shohdorxonga vaziri Holmon Odilxon bilan urush qilmaslik haqida ogohlantirganda bu maqolni qollagan	Hozir ham bu maqol qo’llanadi.
“Xudo degan murodiga yetadi, tuya mingan odam tog’dan o’tadi”	Xudo degan kishini o’zi o’nglar ishini. Qimirlagan qir oshar.	Rustambek G’o’ro’g’lini qabrdan olib ketish uchun shu maqolarni aytadi, tutingan singlisi Bibi Hilolga murojaat qiladi ahd-paymon qilganini eslatadi. U o’gliga tutingan tog’asi Rustam bilan Zangarga ketishga ruxsat beradi	Bu maqollar va uning muqobillari ishlatiladi.
“Haq saqlasa, balo yo’q, Haq qarg’asa, davo yo’q”	Xudo bor qilganni bandasi xor qilolmas. Saqlanganni saqlaydi.	Bibi Hilol Holliqqa jonini topshirganda Sohibqiron qutulganiga Shohdorxon va amadorlari xursandchilik qilishadi. Lekin Sohibqiron-Go’ro’g’lini Haq saqlaydi.	Bu maqolning muqobillari ishlatiladi

“Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostonini o’rganishda o’quvchilarning yodida qolishi va oson o’zlashtirishi uchun jadvallardan foydalanish kerak. Chunki hamma timsollar jadvalga shunday joylanadiki natijada, o’quvchilarda ko’plab badiiy timsollarni yodda saqlashida va o’rganishida qulaylik yaratadi.



Ushbu mavzuni o'quvchilarga o'tganda yuqoridagidek usullar bilan o'tish katta samaradorlikka olib keladi. Biz shundan kelib chiqib har bir pedagogga interfaol usullar, AKT va pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanishni tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. "Adabiyot" 11-sinf uchun-Toshkent-2018
2. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni.
3. Internet materiallari.



ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUOLLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Tangriyeva Ozoda Allabergenovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
onatili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida ko'rgazmali quollardan foydalanish metodikasi va ushbu metodikaning o'quvchilarda estetik tuyg'ularni shakllantirish, adabiy asarni idrok etish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashishi, adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, dars, ko'rgazmalilik, o'quvchi, o'zlashtirish, idrok etmoq, metodika.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi, o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordam berishdan iboratdir.

Tabiatiga ko'ra adabiyotning o'zi borliqning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: Texnika vositalaridan kompyuter, ideoproektor, kino, televideniya, musiqa, tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarda estetik tuyg'ularning shakllaniishi va rivojiga imkon beradi. Shuningdek, adib yaratgan obrazlarning o'quvchi ongida yanada puxtarroq muhrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, kompyuter va boshqalar har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali quollar doirasi yanada kengayadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish, bir-biridan o'z xarakteriga ko'ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. Uni to'garak ishlarda, fakultativ mashg'ulotlarda olib borish mumkin. Darsda esa ko'rgazmalilik, o'quvchilarning aksari o'zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo'llanishi mumkin. Aks holda u birinchi rejaga chiqib, asosiy mavzu orqa rejada qolishi mumkin.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi, o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, o'quvchilar nutqini o'stirishni ta'minlashdan, bir so'z bilan aytganda adabiyot o'qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat. Bu xususiyat har bir aniq holatda turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'rgazmalilikdan foydalangandagina darslarda shartli ravishda o'quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin.

Agar ko'rgazmali qurol o'quvchi faolligini ijobiy ta'sir ko'rsatmasa, undan foydalanmagan ma'qul. Demak, ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda ko'rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir: illyustrativ-badiiy hamda grafik (chizma) materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofilm va o'quv filmlar, televizion darslar, slaydlar va h.k. Ularning har biri ko'rish, eshitish, sintetik shakldosh ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin. Ayniqsa ko'rish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustratsiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo'lgan joylar fotografiyasi, yoki yozuvchining hayoti bilan bog'liq fotosuratlar, va boshqalar kirishi mumkin. Har holda eng kamida darslik va darslik majmualardagi rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Otkritka ko'rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foydalanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o'quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin bo'ladi. Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishga doir albomlarda tasviriy san'at asarlaridan namunalargina emas, yozuvchining o'zi va zamondoshlari aytgan fikrlar, xatlardan namunalar bo'lishi mumkin.

Tinglash bilan aloqador ko'rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Asarni, xususan she'riy asarlarni to'liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushni obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik. Oybek, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Oripovlarning tovushlari yozilgan disklar, A.Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar plastinka va disklar butun o'rgatuvchilarimiz ko'p qiyinchiliksiz topishi mumkin bo'lgan va amaliyotga ko'p qo'llaydigan manbalardir. Musiqa va badiiy-ifodali



o`qish, adabiyot o`qitish jarayonida o`quvchilar faolligini oshirishda katta ijobiy rol o`ynaydi. Disklarning adabiyot darslaridagi zaruriyati ba`zan nihoyatda ochiq seziladi.

O`quvchilarni kitob o`qishga qiziqitirishda ko`rgazmali qurollar muhim didaktik vosita sanaladi. Agar ko`rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o`ylab ko`rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Adabiyot darslaridagi ko`rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Shunga ko`ra o`quvchi filmni yoki rasmni ko`rib, kuy yoki qo`shiqni tinglab bo`lganidan keyin unga shunday savollar berilishi lozimki, bu topshiriq va savollar o`quvchini badiiy asar ichiga olib kirishga, badiiy obraz yoki tasvir mohiyatini chuqurroq anglashga, so`zning ta`sir kuchini yaqqolroq his etishga yordam bersin. Yana bir muhim holat shundaki, ko`rgazmali qurollarni yaratishga o`quvchilarning o`zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko`herish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko`rgazmalar yasash, o`quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o`qitish metodikasi. -T.: O`qituvchi. 1992.
2. G`ulomova N. O`quvchilarning badiiy adabiyotga bo`lgan qiziqishlarini orttirish. Til va adabiyoti ta`limi. 1992.



UVAYSIIY SHE'RIYATIDA TALMEH SAN'ATINING QO'LLANILISHI

To'yqulova Xolida Rustamovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

14-maktab o'qituvchisi

Telefon: +99891- 252-04-80

xolidato'yqulova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Uvaysiy she'riyatida qo'llanilgan talmeh san'ati haqida ma'lumot berilgan. G'azal baytlarining ma'nosi ochib berilgan. Shoiraning badiiy mahorati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, muxtasar, talmeh, tarix, mutaassir, poetik mahorat, Masih, mumtoz adabiyot.

XVII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Qo'qon adabiy muhitiga mansub iste'dodli shoiralardan biri Jahonotin Uvaysiy o'z lirik merosi bilan o'zbek mumtoz adabiyotini boyitdi. Uvaysiy she'riyati – shakl, mazmun, obraz va tasvir yo'llari bilan ungacha yaratilgan Sharq adabiyoti ilg'or an'analarga qattiq tayangan, rivojlanish yo'llari shu adabiy zamindan kelib chiqqan she'riyatdir. Oybek ta'kidlaganidek, “Shoira she'rlari toza muhabbat, nafis his-tuyg'ularga to'la samimiy va yurakdan yozilgan”. Uvaysiy Sharq she'riyati maktabidan puxta ta'lim olib, ular an'anasini davom ettirib, poetik mahoratini takomillashtirdi. Shoira nazarida, jozibali she'r- “muxtasar”, “mutaassir” she'r, ya'ni ixcham va ta'sirli she'rdir.

Shoira g'azal, mustazod, muxammas, musaddas va boshqa janrdagi she'rlarida mumtoz she'riyatda belgilangan tashbeh, talmeh, tazod, tanosub, irsoli masal, takror hamda boshqa badiiy san'atlarni qo'llaydi. Garchi bu badiiy tasvirdagi an'anaviylik bo'lsa-da, Uvaysiy uning qobig'iga o'rilib qolmagan. Balki badiiy san'at qo'llashning yangi qirralarini yaratishga intilgan.

Tarix- she'riyat ravnaqi uchun katta xazina. Chunki ijodkor ba'zan o'zi yashab turgan masalalarini yoritish, savollariga to'laroq javob topish maqsadida tarixga murojaat qiladi. Bu yo'lda mumtoz adabiyot vakillariga talmeh san'ati bir poetik vosita sifatida qo'l kelgan. Talmeh san'ati badiiy asarga tarixiy shaxslar, tarixiy joy nomlarini keltirish san'atidir. Atoulloh Husayniy bu san'at haqida shunday deydi: “Talmeh lug'atta bir nimaga nazar solmoqtur va bu san'atga she'r va andin o'zga nimalarga ishorat etilgani uchun ani talmih deb adapturlar”. Talmeh ijodkorning tarixiy voqea- hodisalar, afsonalar, yozma hamda og'zaki adabiyot qahramonlariga doir fakt va ma'lumotlardan foydalanish mahoratining bir qirrasini ochadi. Talmeh shoira she'riyatida eng ko'p qo'llangan san'atlardan biridir. U Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho, Vomiq va Uzro, Masih, Iskandar, Jamshid, Hotamtoy, Sulaymon, Ayozi, Xizr, Ilyos, Mansur, Ibn Sino, Aflotunga o'xshash ko'pdan ko'p tarixiy shaxslar va qahramonlarga oid rivoyat va ma'lumotlarga ishorat qilib, lirik qahramon xarakter xususiyatlariga xos xilma-xil sifat va fazilatlarini aks ettiradi. Uvaysiy Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Masih obrazlaridan ko'p o'rinlarda foydalanadi:

Tahammul, sabr tirnog'ida qazdim ishq tog'ini

Ki bu Shirin so'zig'a ojiz erdi ko'hkan Farhod.

Oshiq sabr – bardoshli. U yoriga yetishish yo'lida qiyinchiliklarga duch keladi. Bu zulmlardan biri sabr- toqatlilik bilan ma'shuqasini kutish edi, Go'yo bu kutish oshiq uchun tog'ni tirnoq bilan qazgandek bo'ladi. Shoira oshiqning chidamliligi, kuchli ekanligini ko'rsatish maqsadida baytida Farhod obrazini kiritadi. Bizga ma'lumki, Farhod mumtoz adabiyotimizda mehnat va mashaqqatga toblangan shaxs timsoli bo'lib, ko'hkanligi bilan mashhurdir. Shunday bo'lsa-da, Farhod oshiq oldida ojiz. Ushbu holatni uning boshqa misralarida ham uchratish mumkin:

Ki sabrim tirnog'ida har kuni yuz ko'hi g'am qazdim,

Mening oldimda Farhod ojiz, ko'hkan ojiz.

Lab dema og'zim labida yotqusi ikki o'lik

Ey Masihim, la'li shakarboling aylar orzu

Masih- o'z nafasi bilan o'lganlarni tiriltiruvchi, jon bag'ishlovchi payg'ambardir. Mumtoz adabiyotda, jumladan, she'riyatda yorni va uning labini jonbaxshlik yuzasidan Masihonafas, Masihonafas kabi tavsiflar berilgan. Shuning uchun ham shoira baytida o'z Masihiga murojaat qiladi. Ey Masihim, mening labimni ko'rganda ularni lab dema. Mening labim go'yo ikkita o'likning yotganiga o'xshaydi. Mening bu holdagi labim sening asaldek tiriltiruvchi so'zlaringni



orzu qilmoqda, deydi.

Uvaysiy sabr qilg`il garchi o`lsang tashnalig`dinkim,

Tirilg`ung ul Masihing obi hayvondan sug`org`on chog`.

Ey Uvaysiy chanqab suvsizlikdan qurbon bo`layotgan bo`lsang ham sabr qil .Masihing kelib tiriklik suvi bilan sening chanqog`ingni qondirganda, o`z holingga qaytasan, ya`ni tirilasan. O`lganlarga jon bag`ishlovchi Masih obrazini kiritib, talmehdan o`rinli foydalangan va shu orqali oshiq xususiyatini ochib bergan.

Uvaysiyda mumtoz shoirlarimiz ijodida deyarli ishlatilmagan yoki kam ko`ringan talmeh san`atlari ham bor. Buni professor Ibrohim Haqqulov o`z kitobida alohida ta`kidlagan.

Uvaysiy tarixiy hamda afsonaviy voqealar yordamida she`riyatning to`laroq yoritish mumkin bo`lgan tomonlarini to`g`ri topgan. O`z davridagi ishqiy, axloqiy, ijtimoiy, tarbiyaviy masalalarni yoritishda talmeh san`atidan mahorat bilan foydalangan. Bu san`atni tahlil qilish Uvaysiy she`riyatining g`oyaviy va badiiy qimmatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Uvaysiy. Devon. Toshkent. 1963
2. Atoulloh Husayniy “Badoyiu-s-sanoyi” Toshkent. 1984
3. S. Matchonov, Sh. Sariyev “Adabiyot” Toshkent. 2012
4. A. Hojiahmedov “She`r san`atlarini bilasizmi?” Toshkent .2001
5. I. Haqqulov. She`riyat- ruhiy munosabat. T.1989.



БЕРДАҚ ҚАРАҚАЛПАҚ ӘДЕБИЯТЫНЫҢ МАҚТАНЫШЫ

Узакбаева Гулзира Жолдасбаевна
И.Юсупов атындағы дөретиушилик
мектебининң қарақалпақ тили
хәм әдебияты пәни муғаллими
Телефон: +998936140444

Аннотация: Бул мақалада Бердақ Қарғабай улының өмири хәм оның шығармаларының әҳмийети ҳаққында сөз етилген.

Гилт сөзлер: алп тулғалары, Аққала, Қарақум ийшан медресеси, қатықулақ.

Хәрбир халықтың миллий мақтанышына айланған мәдений байлықлары, алп тулғалары болады. Олар қанша жыллар өтсе де, халқының есинде, санасында мәңги сақланып қалады. Сондай ардақлы перзентлери арқалы халық өзиниң ким екенин биледи, руўхый байлығын асырып отырады.

Усындай өз халқының абыройы менен мақтанышына айналған уллы тулғалардың арасында қарақалпақ халқының перзенти Бердақ Қарғабай улының ийелеген орны айрықша.

Қарақалпақ әдебиятының классиги, уллы реалист шайыр Бердақ қарақалпақ халқының ғана емес, пүткил түркий тиллес халықлардың ортақ перзенти, ардақлы шайырына айланғаны ҳақыйқат. Әсиресе, турмысы менен тили бир, тарийхы менен тәғдирлес қазақ халқының да қәдирли ақыны болып табылады.

Усындай халқымыздың мақтанышы болған ардақлы Бердақ бабамыз 1827-жылы Әмиўдәрьяның теңизге қуярлығында, қубла Арал жағасында Аққала деген жерде дүньяға келген. Әкеси балықшы Қарғабай хәм анасы Қарқара гедей адамлар болған. Бердақ он жасында ата-анасынан жетим қалады. Ол дәслепп аўыллық мектепте саўат ашып, соң Қарақум ийшан медресесинде оқыйды. Бирақ, турмысы көтермей, оқыўын тамамламай турып, шығып кетиўге мәжбүр болған. Буннан кейинги жыллары шайыр бақсышылық пенен шуғылланып, өз бетинше оқып, билимин жетилистирген. Сондай-ақ, өз заманының басқа шайырлары сыяқлы көп үйренип, қатықулақ адамлардың, талант ийелериниң шығармаларын жақсы билген хәм өзлестирген. Оның шайырлық талантын жетистириўде атақлы қарақалпақ шайырлары Күнхожа, Әжинияз хәм туўысқан халықлар шайырларының да тәсири үлкен болған. Бердақ Қарғабай улы 1900-жылы 73 жасында қайтыс болған хәм Қарақум ийшанға қойылған.

Бердақтың өз заманласларынан бийиклиги соннан ибарат, ол удайы мийнеткеш халықтың арын арлап, жырын жырлады. Оның қосықларында мүсәпирлик ҳалда жасаўшы қарақалпақ халқының қайғы-хәсиретин жырлаў менен бирге, оны жасаўға жигерлендирди. Ол өзиниң өмирин, барлық дөретиўшилигин халыққа хызмет етиўге бағышлаған.

Бердақ – өмирдиң мақсети – ел ушын, халық ушын хызмет етиў, халық бахты ушын ислеў деп билген. Ол өзиниң белгили «Жақсырақ» қосығында

«Жумыс исле, туўылған соң ел ушын,
Жаныңды аяма елде ер ушын
Киндиктен қан тамып, туўған жер ушын
Өлип кеткениңше хызмет жақсырақ»

деп жазған еди. Усы сөзлер оның барлық өмир бойына алған ураны болды.

Бердақтың өмир сүрген дәўиринде қарақалпақ халқының Хийўа ханларының, патша хәкимлериниң хәм өз арасындағы байлардың, бийлердиң молла-ийшанлардың аяўсыз езиўшилиги астында жасады.

Бердақ езилген жарлы мийнеткешлердиң жырын жырлаўшы, муңын муңлаўшы сүйикли шайыры болды. Өзиниң қайғы-хәсиретке толы болған қосықларында залым ханлардың, байлардың, молла-ийшанлардың аяўсыз езиўшилиги астында женшилген қарақалпақ гедейлериниң турмысын, ой-сезимлерин билдирип өткен. Әсиресе, оның «Халық ушын», «Жақсырақ», «Салық», «Болған емес», «Излер едим» деген қосықларында хәм басқа шығармаларында шайырдың халықшыл-демократиялық идеялары ашық көринеди.

Бердақ қарақалпақ шайырларының ишинде биринши болып, өз халқының тарийхын, өткендеги қаҳарманлық ислерин изертлеген, сол жолда бир талай мийнет еткен шайыр



болды. Қарақалпақ халқының тарихы, оның өткендеги қаҳарманлық ислери тууралы «Шежире», «Айдос баба», «Амангелди», «Ерназар бий» сыяқлы бир қанша көлемли тарихый шығармалар дөретти. Бул шығармалар избе-из илимий тарих болмаса да, бирак олардың бир қатарларының тарихый хэм көркемлик әҳмиети бар.

Шайырдың мийраслары, өмир тарихы хэм жәмийетлик көз-қараслары жөнинде көп ғана алымлар изертлеў жумысын жүргизип, мийнетлер жазған, өзінше бахалы пикирлер айтқан хэм ҳазирде де айтып атыр. Көрнекли алымлар Н.Дәўқараев, Қ.Айымбетов, И.Сағитов, О.Кожуров, шайыр мийрасларын халық арасынан жыйнаўшылар Ш.Хожаниязов, С.Мәўленовлар болды. Шайыр мийрасларын изертлеўде хэм орыс жәмийетшилигине таныстырыўда М.Нурмухаммедов, мектеп сабақларына киргизиўде Б.Исмаилов, С.Ахметов, өзбек тилине аударып, китабын шығарыўда шайыр Миртемир дамла, орысшаға аўдарыўда Н.Гребнев көп мийнет етти.

Бердақ шайыр билимли, талантлы шайыр болғанлықтан XIX әсирде өз мийнети менен халық қаҳарманлығына ерискен шайыр. Бердақ шайырдың бизге қалдырған бийбаха мийрасы XIX әсирдеги жәмийетлик тарихтың бир бөлими, миллет мәдениятының тарихы болып қалмастан ол өткен әсирдеги қарақалпақ халқының үлкен бай әжайып тарихый жазба естелиги болып та қалды. Оның бул шығармалары арқалы биз Бердақ шығармалары дөретіўшилигиндеги феодаллық патриархаллық әсир шараяты жүзеге келтирген тарихый социаллық карама – қарсылықлардың себеплерин де анық көремиз.

Бердақ аты мәңгилестирилип, ол ҳәр жылы ноябрь айында үлкен көтериңкилик пенен бабамыздың туўылған күни сыпатында белгиленип келинбекте. Мине, быйыл да улыўма билим бериў мектеплери, орта хэм жоқары оқыў орынларында Бердақ шайырдың 194 жыллығы кең түрде байрамланып атыр. Бердақтың өлмес шығармалары көплеген туўысқан халықлар тиллерине аўдарылып өз оқыўшыларының жүрегинде мәңги сақланады.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. «Бердақ дүньясы» Қ.Аралбаев «Туўысқанлық нәсиятшысы» 50-бет
2. «Бердақ» таңламалы шығармаларының жыйнағы. 1977
3. «Бердақ» сайланды шығармалары. 2019



ТА’ЛИМ СИФАТИНИ OSHIRISH: MUAMMO, YECHIM VA ISTIQBOL.

Sharipova Mushtariy Ismoilovna

Xorazm viloyati, Bog’ot tumanidagi 31-son
maktabning ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi
+998978588714
mushtariy.sharipova@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon ta’limi muammolari, ularning yechimlari va ta’lim tizimining istiqbollari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, o’qituvchi, muammo, istiqbol, maktab, usul, o’quvchi, muloqot, aqlli, yechim.

Ma’lumki, har bir dars mavzusini o’rganishda o’ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to’g’ri keladi. O’qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo’ljallash kerak bo’ladi. Bunda o’qituvchi fanning o’ziga xos tomonlarini, o’quv jarayonini va sharoitini, o’quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim.

An’anaviy ta’lim o’quvchilarni tayyor bilimlarni o’zlashtirishga o’rgatadi, unda o’qituvchi shaxsi asosiy o’rinni egallagan bo’lib, o’quvchi esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo’lib kelgan. Ilmiy-texnika revolyutsiya davrida o’quvchi o’zlashtirishi lozim bo’lgan ilmiy axborot hajmining keskin oshib ketishi bilan an’anaviy ta’lim kam samarali bo’lib qoldi. Ana shuning uchun kelish davri interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar o’quvchilarni egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib topishga, mustaqil o’rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o’zlari xulosa chiqarishga o’rgatadi. Bunda o’quvchining bilim olish ishtiyoqini muntazam oshirib borish;

- o’quvchining har qanday muammoga ijodiy yondoshuviga o’rgatish;
- pedagog va o’quvchi faoliyatining o’zaro hamkorligini ta’minlash;
- o’quvchining dars davomida befarq bo’lmasdan, ijodiy fikrlashi va izlanuvchan bo’lishiga imkon yaratish.

Milliy ong milliy ruh va tafakkurni rivojlantiruvchi ona tilini bilgan har bir o’quvchi o’z-o’zidan boshqa fanlarni ham o’zlashtira oladi. Avvalo o’qituvchi o’quvchi psixologiyasini va o’zlashtirish salohiyatini e’tiborga olgan holda mavzuni darsda qatnashayotgan barcha o’quvchilarga singdira olish qobiliyatiga ega bo’lish lozim. Bunda o’qituvchining kasbiy mahorati jonkuyarliligi va o’quvchining zehni, xotirasi, uquvi va tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O’quvchining bilim malaka va ko’nikmasini kompetensiyaga aylantirish uchun o’qituvchi vositachi bo’lishi kerak. Zero o’quvchilar maktabda egallagan bilimlarini kelgusi hayotda joiz o’rinlarda foydalana olishsin.

Ta’limda ona tili darslarini o’qitishga kamchiliklardan biri darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish kerak ekan, deb mashg’ulotlar o’yinga aylantirilib yuborildi. Ya’ni yangi pedagogik texnologiyalardan o’z o’rnida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Maqsad: o’quvchilarni turli xil mazmunsiz o’yinlar orqali darsda ushlab turishdan voz kechish. Darslarni o’z o’rnida turli slaydlar, audioeshittirishlar vositasida tashkil etish, albatta, vaqtdan unumli foydalanish, ta’lim sifat –saviyasi samaradorligini oshirish, bolani darsga qiziqtirishda katta ahamiyatga ega.

Keraksiz nazariy masalalarga behad chuqur kirib ketilganligi, grammatika ta’limiga ustunlik berilib, so’z ta’limi keyingi o’rinlarga tushib qolganligi, darsliklardagi xatoliklar, nazariy chalkashliklar, o’quvchi egallagan ko’pgina bilimlarning aslida kompetentsiyaviy mohiyatga ega emasligi kabilar bugun ona tili ta’limidagi muammolardandir.

Darsliklarimizda tilimizning turkona tabiatiga xos bo’lmagan qoidalar ham yashab kelayotgani yaxshi emas. Ulardan voz kechish kerak. Tilimiz qat’iy qoliqlarga ega. Masalan, ona tili darsliklarida biror qoida tushuntirib kelinadi-da, eslatma deb unga “sig’maydigan” ba’zi “istisno” holatlar keltiriladi. Holbuki, o’zbek tilining fonetik, morfologik, sintaktik, leksik qonuniyatlari juda qat’iy. O’zbek tilining o’ziga xos qonuniyatlarini sof saqlashimiz, darsliklar mazmunini shu jihatdan takomillashtirib, istisnolardan xalos qilib borishimiz kerak.



Ona tilini o'rganish degani bu faqat tilshunoslik qoidalarini yodlash va ularga doir mashq va topshiriqlarni bajarish bilan cheklanib qolish emas. Shu bilan birga og'zaki va yozma nutq savodxonligi, nutq va muloqot madaniyati, boy so'z zaxirasi va notiqlikni ham birinchi o'rinda qo'yish lozim. Buning uchun har bir sinfda imlo va izohli lug'at bo'lishini ta'minlash va ona tili fanidan ham lug'at daftar yuritilishi lozim. So'z boyligi bo'lmagan o'quvchida matn yaratish ko'nikma va malakasi mutlaqo shakllanmasdan qoladi. Axir, farzandlarimizning o'z ona tilida maromiga yetkazib, so'zni marjondek terib, ma'nosiga tushunib so'zlay olishi uchun ham so'z boyligi, nutq malakasi zarur bo'ladi.

Ona tili barcha fanlarning onasi hisoblanar ekan, bu fanni o'quvchilarga o'rgatishda juda e'tiborli bo'lish va sinfdagi o'quvchilarning barchasi fanni chuqur o'zlashtirishga ahamiyat berish lozim. Buni amalga oshirishdagi asosiy muammolardan biri sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi va buning natijasida o'quvchining uy ishini, sinf ishini tekshirishga vaqt yetmay qolishidir. Chunki matn, hikoya va gap tuzish topshiriqlarini tekshirish jarayonida imlo, ishora va uslubiy xatolarini izohlab, tushuntirib ketish kerak bo'ladi.

Fikrimcha, davr olimlardan zamonaviy uslubdagi, ilg'or qarashlarga asoslangan darslik yaratishni talab qilayotir. Amaldagi darsliklarda qoidalardan so'ng berilgan mashq va topshiriqlar bolaning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkur doirasining kengayishiga yordam bermaydi, mustaqil fikrlashga undamaydi. Darslik yaratish uchun qandaydir ilmiy darajaga(unvonga) ega bo'lish kerak, degan talabga o'zgartirish kiritib, oddiy o'qituvchilarga ham o'z tajribalariga tayangan holda bolaning yoshi va qiziqishlari doirasini inobatga olib, yangicha uslubda darslik yaratish imkoni berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, bu muammolarning yechimi, boshqa fanlardan farqli o'laroq ona tili fani qo'shimcha dars to'garaklarini 2 soat emas, majburiy qilib haftasiga 4-5 soat qilish kerak deb o'ylayman. Qo'shimcha to'garaklar ona tilimizning barcha qonun-qoidasi va so'z boyligini, ularning mazmunini kelajak avlod ongiga singdirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. N.Mahmudov. “Ona tili o'qitish metodikasi”. Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti 2010.
2. G'. Hamroyev. “Adabiy talaffuz madaniyat belgisi”. “Ma'rifat” gazetasi. 2019-yil. 48-son.
3. R.Yoldashev. “O'zbek tili darsliklari”. “Ma'rifat” gazetasi. 2019-yil 42-son.
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun ona tili fanidan o'quv dasturi. 2017-yil.



YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Matnazarova Mavluda Xorazm viloyati
Bog'ot tumani 2-IDUM Ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi
Telefon: +998 99 563 18 13

Babadjanova Dilnoza Xorazm viloyati
Bog'ot tumani 6-maktab Ona tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi
Telefon: +998 90 438 11 30

Annotatsiya: Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, tarbiya, oshiq.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to'g'ri yo'lga da'vat etishdir. To'g'ri yo'l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o'zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo'lga kirmog'i, butun kuch va vujudini shu yo'lga qaratmog'i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o'rinli bo'ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Badiiy asarlar ta'sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o'ziga jalb qiladi shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalari mohiyatini anglash, insonga xos tuyg'ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o'ylash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma'naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir. Adabiyot go'yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o'xshaydi. O'sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag'ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tubtubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag'ishlaydi. O'qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdir, chigal qismatlar ro'parasiga olib chiqadi. Asar voqealari bilan ulg'ayib, mashaqqatli yo'llarni ortda qoldirib, nurli tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo'lamiz.

Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurli kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi. Inson uchun bugungi kunda tansiq bo'lib borayotgan mehrning ulug'ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasini o'qib guvoh bo'lganmiz. Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo'lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o'qirkanmiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg'on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo'rixonning ahvoliga tushadi. Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarni unutib qo'yadi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsnı jılovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining "mahshar kunida armoni" bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida "Nafsnı tepib dargohiga loyiq bo'lg'il" deb ta'kidlanadi. Bu nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko'tarila olishiga doir mulohazadir. Ishq tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding, Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding, Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding, Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q. Ushbu bandeda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisoli o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'zshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho'ir ta'biri bilan aytganda "bu dardni bedavo derlar" (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta'riflab Alisher Navoiy "Mahbub ulqulub" asarida yozadi: "buni



ko`rmagan kishi bo`lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron- ufiroq mundin iboratdur...”. Shu ishq tavsifiga bag`ishlab Navoiy “Layli va Majnun” dostonini tozгани sizga ma`lum. Ahmad Yassaviy ta`kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta`kidlaydi – “Olloh haqqi bu so`zlarni yolg`oni yo`q”. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo`li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo`llaydi. Adib to`g`ridan to`g`ri nafsga qarshi kurashni, uning yo`rig`iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi. Nafs yo`lig`a kirgan kishi rasvo bo`lur, Yo`ldan ozib, toyib, to`zib gumroh bo`lur. Yotsa, qo`psa shayton bilan hamroh bo`lur, Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. B. To`xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Rajabova Rohatoy, Xorazm viloyati
Bog'ot tumani 3-IDUMI
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Telefon:+998 91 995 46 45

Abdullayeva Fazilat, Xorazm viloyati
Bog'ot tumani 1-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon:+998907136815

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo'shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalarga hamohang bo'lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rindir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlantirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko'raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo'ja domla, shahar maorif bo'limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o'ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo'ja domla xarakteri jonli va to'laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo'lgan dramaturgiya sohasida ham iste'dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko'targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo'lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta'sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo'ziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o'jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o'xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og'riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo'liga to'siq bo'layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog'liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan



Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ'ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo'lishini ko'rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko'rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo'msagan, adolat mavzusini o'ziga bayroq deb bilgan betimsol so'z san'atkori Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko'tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”, -“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA

Sobirova Anajon,

Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 27-maktab

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Telefon: +998335164343

Raximova Aziza,

Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 2-IDUM

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998990317646

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi turi hisoblanmish maqollar va ularning ibratli tomoni, maqollarning turi, kelib chiqishi, mavzusi, inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, maqol, tarbiya, ibratli saboq, so'z ko'rki.

Xalq og'zaki ijodida tarbiyaviyligi bilan maqollarning o'rni beqiyosdir. Maqollar odamlarning hayoti va turmush jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ifodalanadi.

Alisher Navoiy o'zining ijodiy faoliyatida xalq og'zaki ijodini o'rganib, kishilar hayotida maqolning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib shunday baytni yozadi:

Kishiga necha mushkul hol, Kimki bilay desang maqolin angla, Hikmatu aql anga erur halol. Asli bilay desang oni angla.

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir. Masalan, “Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas”, – deymiz. Bu so'zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yi somon bo'lgan kishning iztiroblari yotibdi. Yo bo'lmasa, “O'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l”, – degan maqolni oling. Bu so'zlar zamirida ham katta hayotiy tajribalar mujassam. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur Mirzo esga tushadi. Hindistondan katta mamlakatga podsholik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig'lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo'q.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida “omon” bilan “somon”, ikkinchisida “sulton” bilan “cho'pon” o'zaro ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadi. Masalan, “Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor”, – desak, bu yerda ham “bo'yi” va “to'ni” so'zlari qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirliklik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizni “So'z ko'rki – maqol”, deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. bu fikr rad etib bo'lmaydigan hokum shaklida keltiriladi. Masalan, “Ona yurtning – oltin beshiging”, “Olim bo'lsang, olam seniki!” kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz.

“Maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “so'z” degan ma'noni bildiradi. Uni otalar so'zi ham deydilar. Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin. Masalan:

Oltovlon ola bo'lsa, Og'zidagin oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa, Tepadagin endirar.

Bu maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o'g'li bo'lsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil bo'lmasa, og'zidagilarini oldiradi. Ular istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To'rt aka-uka ahil bo'lsa, ular ko'p ish qila oladi. Ya'ni, ahillik bo'lsa, oz odam bilan ham katta ishlar qilishi mumkin. Ahillik bo'lmasa, ko'p ish bilan ham hech ish qila olmaysan. Bu – ma'nosi.

Ifodaga kelsak, “oltovlon”, ko'pchilikni, “to'rtovlon” ozchilikni anglatyapti. “Ola bo'lmoq” noahillik, “tugal bo'lmoq” ahillikni bildirmoqda. “Og'zidagin oldirmoq” bor narsalarni boy



deb berib qo`ymoq, “tepadagini endirmoq” qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma`nolarini anglatyapti.

Maqollar xilma-xil mavzularda bo`lishi mumkin. Masalan, do`stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo. Aziz farzand, xalq maqollari – boyligimiz. Ota- 11 Ноябрь 2021 8-қисм Тошкент bobolarimizning siz bilan qoldirgan xazinalaridan biridir. Ularni izlab toping, sevib o`rganing. Kerak o`rinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular butun umringiz davomida hamrohingiz bo`ladi. Har gapingizning salmog`i oshadi. Sermazmun, ta`sirchan, keskir bo`ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbek xalq maqollari. Toshkent. 2003-yil.
2. S. Ahmedov, R. Qo`chqorov. Adabiyot. 5-sinf darsligi. Toshkent. 2020
3. Internet ma`lumotlari.



LUTFIYNING “XOH INON, XOH INONMA” RADIFLI GʻAZALINING TAHLILI

Bozorova Gulrux Faxriddinovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktabi
Ona tili va adabiyoti fani oʻqituvchisi
Telefon: +998 91 250 07 76

Annotatsiya: Ushbu maqola Lutfiyning “Xoh inon, xoh inonma” radifli gʻazalining tahlili, yaʼni uning vazni, mavzusi, qofiyalanish tartibi, tili haqida maʼlumot beriladi.

Kalit soʻzlar: gʻazal, bayt, qofiya, radif, lirik qahramon, oshiq, ishq.

Lutfiy – oʻzbek adabiyotining XV asr ikkinchi yarmigacha boʻlgan davrlardagi eng mashhur lirik shoiridir. U Navoiygacha boʻlgan davrning eng oldi oʻzbek shoiri edi. U fors-tojik tilida ham goʻzal sheʼrlar bitgan zullisonayn, yani ikki tilli ijodkor edi. Olimlarning hisob-kitobiga koʻra, shoir merosining umumiy miqdori 3 ming baytga yaqin. Buning 75%ini gʻazal janri namunalari tashkil etadi.

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Bu gʻazal tamoman turkona ruhda bitilgan. Tilimizda kelib chiqishi jahatidan sof oʻzbekcha boʻlgan soʻzlardan tashqari, fors-tojikcha hamda arabcha kalimalar ham koʻp uchraydi. “Turkona” deyilganda shu narsa koʻzda tutiladiki, sheʼrda oʻzbekcha soʻz va iboralar qoʻllash asosiy oʻrin tutadi.

Gʻazal – anʼanaviy yetti baytdan iborat. Anʼanaviyligi shundaki, oʻzbek mumtoz sheʼriyatida koʻp gʻazallar aynan yetti qoʻshmisradan tashkil topgan boʻladi. Sheʼr aruzning nisbatan murakkab turlaridan biri boʻlmish hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur), yaʼni mafʼuvlu – mafoiyli – mafoiyli – faulun (yoki mafoiyli) vaznida bitilgan. Taqteʼsi: — — V / V — — V / V — — V / V — — (yoki V — ~).

Gʻazalda ishq mavzusi qalamga olingan. Lirik qahramon oshiq nomidan soʻzlaydi. Toʻgʻridan toʻgʻri maʼshuqaga murajat qiladi. Biroq bu yerda zimdan ilohoy ishq koʻzda tutilganini ham unutmaslik kerak.

Qofiyasi (“sevarim – jigarim – saharim – guzarim – xabarim – basarim – nazarim – siymbarim”) va radifi (“xoh inon, xoh inonma”) – juda jarangdor. Asar qurilishida ularning alohida oʻrni bor. Xususan, radifning toʻrt soʻzdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. Radifning oʻzida tazod bor; “xoh inon” bilan “xoh inonma” oʻrtasidagi oʻzaro maʼno zidligi asarlarga alohida badiiy joziba baxsh etgan.

“Inonma” – hozirgi tilimizda mavjud “ishonma” soʻzining XV asrdagi shakli. Mamlakatimizning ayrim hududlarida (masalan, Buxoro viloyatida), shuningdek, Afgʻonistondagi oʻzbek shevalarining baʼzilarida hozir ham “ishonma” oʻrniga “inonma” shakli ishlatiladi.

Beshinchi baytida talmeh sanʼati ishlatilgan. Shoirning lirik qahramoni Yoqub alayhissalom kabi koʻp yigʻlayverganidan “nuri basari qilmagani”, - yaʼni koʻzlari koʻr boʻlganini aytadi. Lirik qahramon yori ishqida yigʻlayverib, koʻzdan qolganini aytish uchun shu talmehdan foydalanadi.

Oltinchi baytda yana bir muhim nuqtaga eʼtibor qaratiladi. Yor misolida zimdan Tangr taolo koʻzda tutilgani uchun u hamisha yakka-yu yagona zot sifatida taʼriflanadi. Shoir yorni “Oy yuzli” deb taʼriflagani uchun ham shunga mutanosib ravishda maqtada uni “siymbarim” deydi. Oyning oqligi bilan siym, yaʼni kumushning oqligi oʻrtasida kuchli oʻxshashlik bor.

Gʻazalning tili – sodda, ravon. Murakkab, falsafiy-tasavvufiy soʻz va timsollar – uchramaydi hisob. Shuning uchun gʻazal mazmuni - bugungi oʻquvchi uchun ham tushunarli. Baytlar yengil kayfiyat, ayrica bir ishqiy zavq bilan oʻqiladi.

Adabiyotimizda mashhur gʻazallarga naziralar bitish, yaʼni uning qofiya va radifidan foydalanib, oʻxshatmalar yozish anʼanasi shakllangan. Lutfiyning bu gʻazali taʼsirida Boborahim Mashrab ham bir tazmin gʻazal yaratgan.

Foydalaniladigan adabiyotlar roʻyxati:

1. Sultonmurod olim, Sunnat Ahmedov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2019-yil.
2. Internet maʼlumotlari.



ADABIYOT DARSLARIDA QO‘LLANADIGAN USULLAR HAMDA ULARNING AFZALLIKLARI

Muqimova Muxlisa Murodullayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
17-umumiy o‘rta talim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida qo‘llanadigan usullar hamda ularning afzalliklari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: muallif, adabiyot, g‘ildiraklar, interfaol metodlar, afzalliklar...


Ma’lumki, «Adabiyot» darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘z kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz.

Quyida sizga aynan adabiyot darslarini qiziqarli tashkil etishda qo‘llanadigan usullarni taqdim etishni joiz topdim.

«Muallifini toping?» usuli

Har bir asarning tartib raqamini uning muallifi to‘g‘risiga qo‘ying.

1. “Mahbub ul – qulub”	A.Qahhor
2. “Kuntug‘mish”	N. Dumbadze
3. “Firoqnoma”	A.Navoiy
4. “Muhabbatnoma”	A.Qodiriy
5. “Qutadg‘u bilig”	Oybek
6. “Hellados”	Tog‘ay Murod
7. “Uloqda”	R.Tagor
8. “Yulduzlar mangu yonadi”	P.Qodirov
9. “O‘zbeklar xarakteri”	S.Ahmad
10. “Nur va soyalar”	O‘.Hoshimov
11. “O‘tmishdan ertaklar”	H.Ekzyuperi
12. “Yulduzli tunlar”	Nodira
13. “Ufq”	Xalq og‘zaki ijodi
14. “Urushning so‘nggi qurboni”	Xorazmiy
15. “Kichkina shahzoda”	Yusuf Xos Hojib





Shu o'rinda interfaol metod tushunchasiga e'tibor qaratish lozim.

Interfaol metod - o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'q'ituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui. Demak, adabiyot darslarida bunday metodlarni qo'llash samara berar ekan.

«To'g'risini tanla» usuli

«To'g'risini tanla» usuli orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilar birinchi ustunda berilgan gaplarga ikkinchi ustundagi gaplardan mosini topib o'qishlari kerak bo'ladi.

Navoiyning «Xamsa» asari	1485-yilning boshida tugatdi
Navoiy tarixda buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi	Navoiy asarlarining shuhrati yanada oshdi.
U bu asarni 1483-yilda boshlab	turkiy tilda yozilgan birinchi ulkan asar
O'tgan 500 yildan ortiq vaqt ichida	sifatida nom qo'lgan

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

«Sizningcha kim?» usuli

Ushbu usulda shoir va yozuvchilar hamda asar qahramonlariga oid ma'lumotlar aytiladi. O'quvchilar kimligini topishlari zarur.

1. Men asarlarimni jahonda qanday o'qilishini yaxshi bilaman. Lekin ularni o'zbek xalqi qanday qabul qiladi? Cho'ng qadimiy adabiyotga ega bo'lgan o'zbekning nuqtayi nazari men uchun juda qadrlı (Ch.Aytmatov)
2. U otasidan yetim qolib, bobosi Azim bobo va onasi Komila aya qo'lida tarbiya topdi. U bolalik yillarini «Men bir qora kunda tug'ildim, tug'ildim-a shu on bo'g'ildim» deya eslagan. (Hamid Olimjon)

Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor. U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ijodiy yondashishni, ta'limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa, o'zini va o'zgalarni tushuna olsa, o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni to'g'rilashda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyot darajasiga etadi. Bugungi shiddat bilan jadallashib borayotgan taraqqiyot davrida dunyo har daqiqada o'zgarmoqda, avlodlar. o'zgarmoqda va o'sib kelayotgan avlodning fikrlashi, dunyoqarashi turlicha va bu jarayon bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining tinimsiz izlanishga, yangidan yangi g'oyalarni qo'llashga, ta'limda innovatsion texnologiyalardan, AKT dan foydalanish zaruratini tobora orttirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayxislamov, N. Z. (2020). Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishi - psixolingvistikada o'zbek bolalar nutqining o'rganilishi.
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



UVAYSIY IJODI VA UNDA USTOZ VA SHOGIRD AN'ANALARI

Muqimova Shozoda

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998 33 030 84 24

Annotatsiya: Ushbu maqola Uvaysiyning ijodi va undagi ustoz va shogird an'analari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, ustoz, shogird, Uvaysiy.

Mumtoz adabiyot tarixidan ma'lumki, har bir shoir qaysidir bir zabardast ustoz qolida tarbiyalanadi. Sharq mumtoz adabiyotida USTOZ sharafiga muyassar bo'lgan zotlar shogirdning kasb-kamoloti poydevori bo'lmish ularning taxalluslarini qo'yib, shu nom ostida shuhrat topa olishlarini bashorat qila oladigan buyuk siymo sifatida ham qadrlanadi. Avvalo, har bir shoir taxallusining o'z ma'nosi bor. Mumtoz adabiyotimizda ustozlar asosan muqaddas Islom dini ta'limotiga payg'ambar Muhammad alayhissalom o'gitlari hamda o'tmishdagi ulug' ustozlarga ergashib yoki tug'ilgan yeriga nisbat berib, shogirdiga taxallus tanlagan. Taxallus bu shunchaki bir so'z yoki ismgina emas, balki adibning ijoddan ko'zlagan maqsadini yo'lini belgilovchi timsol, ajdodlari, vatani oldidagi mas'uliyatga ishora qiluvchi hikmatli so'zdir. Masalan, shogirdi qalbidagi ilohiy muhabbat nurlarini ilg'agan Ofoq xoja Mashrab – “ishq sharobini ichgan” nomi bilan, Navoiy – “haq, haqiqat, adolat yo'lida navo qiluvchi”; Foni – “o'tkinchi, ya'ni o'zining bu dunyoda mehmon ekanligini bilib faqat ezgu ishlarni ko'zlovchi”; Maxmur – “ilohiy ishqdan mast bo'lgan darvesh” kabi nomlar bilan tanilishida ustozning hissasi beqiyos. Bunday misollarni minglab keltirish mumkin. Keling, siz bilan hozir sharq mumtoz adabiyotining ilk vakillaridan biri sanalmish o'z zamonasi ayollarining ilm-ma'rifatli bo'lishida ulkan hissa qo'shgan, shu bilan birga, bir necha shoiralarga ustozlik qilgan **Jahon Otin**

O'zbek adabiyoti tarixida mumtoz o'ringa ega bo'lgan Jahon Otin Uvaysiy Nodira bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Saroyda she'riyat ilmidan dars berib ustozlik qilgan.

Uvaysiyning o'z davrining otini- muallimasi ekanligi dinimiz tarixidan dalolat beradi. Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'ldi.

Uvaysiy o'z asarlarida insonga xos bo'lgan ilohiy muhabbat tuyg'ularini e'zoz bilan kuylaydi. Tabiatning hisobsiz go'zalliklari mavjida ishq hissiyoti ham shaloladek tug'yon uradi. Uvaysiy o'zining go'zal va maftunkor latif g'azallari bilan nafaqat o'z davrining balki hozirgi kunda ham muxlislar qalbidagi bitmas-tuganmas zavq bag'ishlab kelmoqda.

1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonni egallagach, Marg'ilonga qaytib, shu umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Oltmish yildan ko'proq umr ko'rgach Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uning qo'lyozma devonlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon Davlat Pedagogika instituti kutubxonasida saqlanmoqda. Shoiraning to'rtta devon tuzganligi ma'lum. Uvaysiyning Navoiy, Fuzuliy g'azallariga bog'lagan ko'plap muxammaslari va naziralari, Bedil ruboiylariga bag'ishlab yozgan she'rlarida ustozlariga xos va mos izdoshligi shoiraning poetik balog'atidan dalolat beradi.

Jahon Otinning shogirdi Dilshodi Barno o'zining Nodirabegimga bag'ishlangan “ Tong mahal chiqdi jharamdan turfa moh” g'azalida Nodira bilan bir qatorda Uvaysiy ham juda katta e'zoz bilan xotirlaydi, ularga yuksak baho beradi.

Bunday faxr va iftixorga musharraf bo'lishning boisi Jahon Otin, avvalo, taxallus tanlashda ustozlar an'anasiga rioya qilib, ular sharafiga yuksakka ko'tarib ijodini boshlaganidir. Uning aql-zakovati, donoligi, serqirra ijodi avlodlar tomonidan hamisha e'zozlanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot. 7-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Internet ma'lumotlari.



RUBOIY – MUMTOZ SHE'RIYATNING LIRIK JANRI

Narziyeva Tursunoy Qosimovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 34-maktab

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998 99 628 15 82

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek mumtoz she'riyatining lirik janrlaridan biri hisoblangan ruboiy haqida va uning qo'fiyalanishi, mavzusi, Alisher Navoiy ruboiylarining o'ziga xos xususiyatlari xususida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ruboiy, mumtoz adabiyot, to'rtlik,

Ruboiy – o'zbek mumtoz she'riyatining lirik janrlaridan biri. “Ruboiy” so'zi arabchadan olingan. U “to'rttadan”, “to'rtlik” degan ma'nolarni bildiradi. Adabiyotshunoslikda esa u to'rt satrli kichik lirik janrni anglatadi. Nomlanishi arabcha bo'lsa ham, bu she'riy shakl dastlab forsiy (Rudakiy, Shaxid Balxiy) va turkiy (Lutfiy) she'riyatida vujudga kelgan.

Har qandast to'rtlik ruboiy bo'la olmaydi. O'ziga xos shakli qurilma, a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida qo'fiya tizimiga ega, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ishqiy va axloqiy mavzularda, faqat aruzda mavjud hazaj baxrining axram va axrab shajaralaridagi jami 24 vazndagina bitiladigan to'rt satrli she'rga “ruboiy” deyiladi.

Navoiy – o'zbek adabiyotida eng ko'p ruboiy yozgan shoir. Uning o'zbekcha ruboiylari “Xazoniy ul-maoniy”ning birinchi devoni – “G'aroyib us-sig'ar”ga kiritilgan. Ularning umumiy soni – 133 ta. Ulug' mutafakkir ayrim nasriy asarlarini ham she'riy parchalar bilan bezab ketavergan. Adib nasrdagi fikriga isbot-dalil sifatida, unda ilgari surilayotgan fikr yoki g'oyani yanada ta'sirchanroq qilib yetkazish uchun she'riy parchalar ham ijod qilaveradi. Navoiy nasriy asarlardagi she'riy parchalarnig ayrimlari janr nuqtayi nazaridan ruboiy tarzida bitilgan. Masalan, “Xazoyin ul-maoniy”ga yozilgan nasriy “Debocha” tarkibida naqd 30 ta ruboiy keltiriladi. Boshqa ayrim asarlarida ham ko'plab ruboiylar mavjud.

Navoiy Muhammad payg'ambar alayhissalomning kuyovlari – hazrati Alining hikmatli so'zlar jamlangan, “Nasr ul-laoliy” (“Marvarid hikmatlari”) asarini she'rga solib tarjima qiladi. “Nazm ul-javohir” deb atalgan bu so'z o'ziga xos to'rt satrli she'rning hammasi ham janr jihatidan ruboiy hisoblanadi. Demak, shoir o'zbek tilida 500 ga yaqin ruboiy bitdi. Unin forsiy devoni – “Devoni foniy”da esa bu janrning 100 ga yaqin namunasu mavjud.

Ruboiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettirish, hayotning turli davrlarida sodir bo'lgan voqea-hodisalar ta'sirida ko'nglida kechgan oniy tuyg'ulari-yu chiqargan muhim xulosalarini ifodalashda shoirga juda qo'l kelgan. “Mahbub ul-qulub” – nasr va nazm aralash tarzda bitilgan asar. Undagi she'riy parchalarning ayrimlari ruboiy janrida yozilgan. “Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi...” ruboiysi ham – ana shundaylardan biri.

Unda to'rttala misra ham o'zaro qo'fiyalangan (“dunluq” – “zabunluq” – “rahnamunluq” – “buqalamunluq”). Shuning uchun she'r bu janrning taronayi ruboiy turiga kiradi. “Qildi” so'zi esa radifli bo'lib kelgan. Bu ruboiyda hasbi hol xususiyati mavjud. Ya'ni unda muallifning tarjimai holi bilan bog'liq vaziyat aks ettirilgan. Lirik qahramon birinchi misrada “gardun” deganda “taqdir” ma'nosini ko'zda tutgan. Taqdir esa unga ba'zan jafo-yu pastliklar qilgan (“Gardun gah manga jafo-dunluq qildi”). Xuddi baxti kabi, har ishda unga shikast, xor-u zorlik yetkazgan (“Baxtim kibi, har ishda zabunluq qildi”). Shoir ruboiyda taqdir ham unga nisbatan shunaqa rangbaranglik qilganini, ya'ni goh jabr-u jafo o'tkazib, goh siylaganini qalamga olgan. Ruboiyning tub mag'zida hayotga muhabbat bor. Har qanday shaxs taqdiri mohiyatan murakkab kechadi. Kishi hayoti bir kun undoq, bir kun bundoq o'tishi mumkin. Xalqimiz buni: “Oyning o'n beshi – qorong'i, o'n beshi – yorug'”, degan ajoyib maqol orqali ifodalangan. Shoir bu yerda inson taqdirining bunday buqalamunligidan ustun kela olishi lozimligi g'oyasini ilgari surgan. “Mahbub ul-qulub”ning ana shu ruboiy keltirilgan qismida ham muallif o'z boshidan kechirgan bir- biriga zid holatlar tasviri orqali xulosa ilgari suriladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonmurod olim, Sunnat Ahmedov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2019-yil.
2. Internet ma'lumotlari.
3. Adabiyot. 5-sinf darsligi.



MUHAMMADSHARIF GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARINI O’RGATISH BO’YICHA TAVSIYALAR

Bozorova Gulzira Sayfulloyevna

Navoiy shahar 5-IDUM
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari, uning yozilish tarixi, asardagi maqol, matal va hikmatlarning tarbiyaviy ahamiyatini o’rgatish usullari ushbu maqolada o’z aksini topgan.

Kalit so’zlar: maqol, matal, hikmat, masal, Yapaloqqush, Boyo’g’li, Ko’rquch, Kardon, qushlar, jonivorlar...

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz o’sib kelayotgan yosh avlod dunyoqarashini, mantiqiy fikrlashini o’stirish, aqliy rivojlanishini yaxshilash, jamiyatda o’z o’rniga ega bo’lgan shaxs bo’lib yetishishlariga ko’maklashishida nutqining ravon bo’lishida adabiyotning o’rni beqiyos. Hikmatli so’z, maqol va matallar bilan boyilgan asarlar esa o’quvchini har tomonlama yetuk inson bo’lishida zamin hozirlaydi. “Zarbulmasal” asarini ana shunday purhikmat asarlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

O’zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalardan biri, o’zbek badiiy nasri taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan Gulxaniy ijodiy faoliyatidagi eng muhim fazilati shuki, u o’z davrining folklorshunosi sifatida o’zbek xalqining beqiyos donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to’plab, mashhur „Zarbulmasal” asarini yaratdi. Gulxaniy asarning kirish qismida uning yozilish sababi ustida to’xtalib, xon saroyidagi she’riy majlislarning birida maqol, matal, hikmatlarning badiiy ijoddagi o’rni haqida gap ketganligini qayd etadi. Xonning nazari Gulxaniyga tushib, uni qoshiga chaqiradi va „...bu zarbulmasallarni necha hikoyatlar orasida aql-u donishning yetishicha tartib ber”, — deb buyuradi. Gulxaniy darhol javob beradi: „Ey shohi jahonpanoh, tojikning bir masali bordurki, az ko’za hamon tarovadki, daro’sst (Ko’zada bori to’kiladi) „Alar (ya’nixon) aydilarki, „O’zbekning bir maqoli bordurki, „Eshakiga yarosha tushog’i”. Bu suhbatdan so’ng, Gulxaniy „amirning amrlarini vojib bilib, zarbulmasal yo’lida sobitqadam bo’ldi va Yapaloqqush va Boyqushning qudalıkları orasinda to’rt yuz zarbulmasali “avommunos”ni bayon qiladi.

Zarbulmasal” arabcha “zarb” va “masal” so’zlarining qo’shilishidan hosil bo’lgan bo’lib, “masallar yig’indisi” ma’nosini beradi. Masal so’zi o’tmishda biz hozir qo’llaydigan maqol ma’nosida ishlatilgan. Zarbulmasal so’zga maqol qo’shib gapirish, o’xshashi va dalilini keltirish ma’nolarini ham anglatadi. “Zarbulmasal” bo’lish-el og’ziga tushish, afsona bo’lish, mashhur bo’lish ma’nolarida ham keladi.

Ma’lum bo’ladiki, Gulxaniy o’z davri va zamondoshlarini asarda zarbulmasal qilgan. U „Zarbulmasal”ni yozishda maqol, matal, naql va xalq og’zaki ijodining to’rt yuzga yaqin boshqa namunalaridan mahorat bilan foydalandi. Zarbulmasal” — hayvonlar haqidagi qiziqarli voqealarga boy asar. Bu asarda ijodkor badiiy maqsadini odamlar taqdiri tasviri orqali emas, balki qushlar, jonivorlar vositasida ifodalaydiki, bu asarning ta’sir kuchini oshiradi.



„Zarbulmasal”da uchraydigan badiiy obrazlarni:



“Zarbulmasal” asarini o’rganishda “O’z so’zim bor” usuli juda samarali usul hisoblanib, bu usul orqali o’quvchilarda masallardagi voqealar va undan olingan xulosalarni mustaqil bayon etish malakasi shakllanadi.



Asarni o'rgatish jarayonida **“Sandiqni durga to'ldir” usuli** ham ahamiyatlidir. Bu usulda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, “Zarbulmasal”dagi hikmatli so'z va maqollarni yozib, guruhlari uchun tayyorlangan sandiqchaga solishadi. Eng maqol va hikmatli so'zni topgan guruh o'quvchilari rag'batlantiriladi.



Shuningdek, darsni tasviriy san'at fani bilan bog'lagan holda **“Tasvir va tasavvur”** usulidan foydalanish o'quvchi tasavvurini o'stirish bilan birga, rang-tasvir orqali fikrlarini namoyish etishga undaydi. Bunda o'quvchilar darsda o'qilgan badiiy parchani rasm orqali rasvirlashlari lozim bo'ladi. Namuna:

Yaxshilik va yomonlik orasida kurash, mashaqqatli mehnatning shirin mevasidan rohatlanish, qo'lidan kelmagan ishga chiranishning oqibatlari haqida hikoya qiluvchi “Zarbulmasal” asari bizga insoniylikdan saboq beruvchi

manbadir. Omonat dunyoda odamzoddan qoladigan ezgu ish, ezgu amallar ushbu asardan o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlar. “Xalq ta'limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b..
2. Adabiyot darsligi.



ADABIYOT DARSLARIDA XALQ DOSTONLARI, XUSUSAN, “KUNTUG‘MISH” DOSTONINI O‘RGANISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Bozorova Nargiza Sayidovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar



5-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot fanidan “Kuntug‘mish” ishqiy-qahramonlik dostonini o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: dostonchilik, do‘mbira, baxshichilik, nayzabozlik, ko‘pkari, sipohlik, nard o‘yini, ishqiy-qahramonlik dostoni,....

Mustaqillik yillarida barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimiga ham alohida e’tibor qaratilib, bu tizim oxirgi yillarda to‘la isloh etilayotgani sir emas, albatta. Barcha fan yo‘nalishlarida bo‘lganidek, ona tili va adabiyot fanlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, jumladan, mavzularning optimallasuvi, nutq madaniyatini oshirishga oid mavzularning kiritilishi, mustaqil o‘qilgan asarlarni o‘rganish uchun soatlar ajratilishi fikrimiz dalilidir. Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish, xususan, xalq dostonlarni o‘rganishga qaratilgan e’tibor - o‘quvchilarni milliy qadriyatlarimizga, a’nanalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashishi, shubhasiz. Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlarini, milliy o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinib turadi. Dostonchilik xalq og‘zaki ijodida qadimiy epik an’ana hisoblanadi. Dostonlar asosan do‘mbira jo‘rligida aytiladi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati, og‘izdan og‘izga o‘tib, avloddan avlodgacha yetib kelganidir. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lgan. Bu dostonlarni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Yo‘ldosh-bulbul, Yo‘ldosh shoir, Suyar shoir kabi mashhur baxshilar kuylaganlar. Keyinchalik ularning an’analari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Berdi baxshi, Umir baxshi shoir, Bola baxshi ijodida davom ettirildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Nurmon Abduvov o‘g‘li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan variantlari mavjud bo‘lgan “Kuntug‘mish” dostonidan adabiy parchalar 8-sinf adabiyot darsligida berilgan bo‘lib, bu doston qiziqarli voqealarga boyligi, o‘ynoqi, ravon tili, nafisligi bilan o‘quvchi va tinglovchini lol qoldiradi. Doston No‘g‘ay yurtining Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podshosi va uning yolg‘iz o‘g‘li Kuntug‘mish, uning o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm-hunar o‘rganishi, kasb-kamolot hosil qilganligi voqealari bilan boshlanadi.

Dostonni o‘rganishda o‘quvchilarni mulohazaga chorlash uchun “Obrazdan obrazga” usuli samarali usullardan biridir. Bu usulda o‘quvchilar obrazlar zanjiri tuzib, har bir obrazga va alohida ta’rif berishadi, keyingi obrazga dahldorligi xususidagi mushohalarini bayon qilishadi. Kuntug‘mish, Xolbeka, Mohiboy, Gurkiboy,....




Shuningdek, dostondagi voqealar tizimini tartiblash va shu tartib asosida asarni bayon qilish uchun “O‘yla, izla, top” usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o‘quvchilar aralash holdagi rasmlarni qayta raqamlab, voqealar ketma-ketligini hosil qilishadi.




Ushbu doston xalq og‘zaki ijodidagi barcha she‘riy qoidalar va uslublarni o‘zida jamlagan asardir.

“**Hikmat bo‘stoni**” usuli orqali o‘quvchilarga dostonidagi hikmatli so‘zlarni topib, ularning ma‘nolarini izohlash vazifasi topshiriladi. Masalan:



Doston yuzasidan olingan bilimlarini mustahkamlashbosqichi „Chala xat“ usuli orqali amalga oshirilsa, o‘quvchilarning obrazlar to‘g‘risidagi bilimlari va asar g‘oyasi haqidagi fikrlari tahlil etililadi. Bunda obrazlarga oid ta‘riflar chala holatda keltiriladi. Topqir va zukko o‘quvchidan bu chala fikrni to‘liq va to‘g‘ri tiklash talab etiladi.



“Shu aziz Vatan barchamizniki, uning porloq kelajagiga barchamiz dahldirmiz. Har sohada yakdillik bilangina ko‘zlagan maqsadimizga erisha olamiz” Dostonlarimizda aks etgan haqiqat, vatanga, ona yurtga sadoqat va qat‘iyat biz ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarini ana shu shior ostida birlashishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ”Kuntug‘mish” dostoni .Toshkent. 2013-yil
2. Darsliklar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar
3. ziyonet.uz. 4.kitob.uz



ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI ULARNI NUTQINI O'STIRISH

Hakimova Barchin Qo'ziyevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15-umumiy o'rta talim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida innovatsion usullardan foydalanish orqali ularni nutqini o'stirish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: BREYN RING, ona tili, innovatsiya, an'anaviy dars, kimoshdi....



Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

“BREYN RING” usuli. Texnologiya ikki raundda o'tkaziladi. Har bir raunda oltita topshiriq mujassamlashtiriladi. O'qituvchi slaydlarni namoyish etib, topshiriqni ikki marotaba o'qiydi. So'ng: “vaqt ketdi” jumlasini ishlatadi. Shundan so'ng guruh o'quvchilari topshiriqni bajarishga kirishadi. Topshiriq bajarilgach, guruhdagi o'quvchilar qo'llarini ko'tarib xabar berishlari shart. Har bir

guruhdan spiker (boshlovchi) tanlanadi. Spiker doskada bajarilgan topshiriqni izohlab berishi lozim. Birinchi raundda so'ng reklama e'lon qilinadi. Bu reklama – uyga berilgan vazifani tasviriylar so'z vositalari asosida ifodlashdan iborat. Reklama uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ikkinchi raundda faoltyat baholanadi. Har bir to'g'ri izohlangan javob uchun- 2 ball, to'liq bo'lmagan javoblar uchun 1 ball. Noto'g'ri javoblar uchun 0 ball belgilanadi. Umumiy ballar yig'indisi guruhlariga taqdim etilgan jamoaviy nazorat varoqlariga tushuriladi. O'qituvchi faollarni baholaydi.

10-sinfda ONA TILI DARSIDA “Terminlar, kasb-hunar leksikasi va iboralar uslubiylati” mavzusida matnda keltirilgan terminlarni iboralarni ajratish, farqlash leksikasi va uslubiylatini anglash nutqda to'g'ri foydalanish yuzasidan ushbu usulni qo'llash dars samaradorligini oshishiga olib keladi

«Kimoshdi» (auksion) usuli

Dastlab auksionga qo'yilgan narsa e'lon qilinadi. Masalan, auksionga Muhammad Yusufning “Ulug'imsan, Vatanim” kitobi qo'yilgani va unga eng ko'p miqdorda ball (pul) to'plagan guruh sazovor bo'lishi mumkin. So'ngra oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar beriladi. Savollarning narxi e'lon qilib boriladi va ballar hisoblab boriladi.

1. So'z turkumlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi? (150 ball – so'm)
2. So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra nechta guruhga bo'linadi? (100 ball – so'm)
3. Yordamchi so'z turkumlari qaysilar? (50 ball – so'm)
4. Ot deb nimaga aytiladi? (200 ball – so'm)
5. Holat fe'llariga misollar keltiring. (100 ball – so'm)
6. Fe'l nechta nisbat shakliga ega? (250 ball – so'm)
7. Ot deb nimaga aytiladi? (150 ball – so'm)
8. Fe'l qanday ma'no guruhlariga ajratiladi? (200 ball – so'm)



Xususan, o'quvchi egallagan bilimlarni qo'llash, uning to'g'ri yo'l tutib, muayyan va'ziyatda tayanch bilimlari qanday tushinchalardan foydalanish va ularni qo'llashning mohiyatiga yetishi ayni paytda tushunchalar mohiyatini rivojlantiradi. Natijada bilimlar amaliyotda qo'llaniladi hamda bu bilimlar o'quvchi ongida rivojlanadi.

Tasviriy ifoda mavusini o'tganda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish mumkin. Bunda botanika, tibbiyot, adabiyot, tarix, musiqa, geografiya, mehnat fanlari bilan bog'liq tasviriy ifodalarning javobini topish talab qilinadi.

1- kasb-hunarga oid:

Salomatlik posbonlari –
Charm qo'lqop ustalari–
Mo'yqalam sohiblari–

2- geografiyaga oid:

Yerosti bo'roni –
Qora oltin–
Zangori olov –

3-sportga oid:

Futbol qiroli –
Millionlar o'yini –
Aql gimnastikasi –



“To'g'ri tanlay bil” usuli

Usul shiori: Xatolarni tuzatgin,
Tengdoshlarga o'rgatgin.

Bu usulda «h» va «x» harflari ishtirok atgan so'zlarni jadvalga to'g'ri joylashtiring. So'zlarni diqqat bilan o'qib, nechanchi so'zda «h» va «x» ishtirok etgan bo'lsa, o'z jadvalingizga «+» yoki «-» belgisini qo'ying.

So'zlar: 1) ..ushbo'y 2) masla..at 3) ..osil 4) ..ohlamoq
5) ..uquq 6) ..onadon 7) islo.. 8) ..indiston 9) mav.. atmoq 10) ..alqsavar
11) sa..ovat 12) no..osdan 13) ..urmat 14) ..avoyi 15) jobira..mat



T/J	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
X															
H															

Xulosa qilib aytganda, tajribadan aniqlanishicha ta'limning sifati o'quvchilar bilim darajasining yakuniy natijalari bilan belgilanadi. O'quvchilar amaliy faoliyatda olgan bilimlarini qo'llay olishi, tayanch bilimlarini tushingan holda idrok etganlari bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 4-son, 2018.
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz.



**ADABIYOT DARSLARIDA IJODIY YONDASHUVCHI VA MUNOZARALI
USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI ULARNI KITOBXONLIKKA
YO‘NALTIRISH.**


Shirinova Zuxro Shuhrat qizi
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rta talim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida ijodiy yondashuvchi va munozarali usullardan foydalanish xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: munozara, FSMU, lahza, bumerang, kvadrat, usullar, komil inson..

Komil inson g‘oyasining mavjudligi va u bilan bog‘liq amaliyot jamiyat rivojlanish darajasini belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, biz har qanday jamiyatni unda yashayotgan kishilarning hatti-harakatlariga qarab baholaymiz. Jamiyatning xarakteri, uning komil inson qilib tarbiyalash borasidagi imkoniyatlarida, unga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni erkinlik, mustaqillik komil inson g‘oyasini amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratadi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim va ustivor yo‘nalishi etib belgilangan. Zero, barkamol avlod kelajagi uchun qayg‘urmagan xalq, millat va davlatning istiqboli bo‘lmaydi. Barkamol avlod tarbiyasida juda ko‘plab omillar zarur bo‘ladi, ulardan biri bu kitobdir. U xoh badiiy adabiyot, xoh darslik yoki she‘riy asar, enciklopediya bo‘lsin, bari insonni ta‘lim olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Sehrli kvadrat” usuli. Belgilangan strelka asosida mantiqiy bog‘liqlikni hisobga olgan holda “?”belgisi o‘rniga kerakli ma‘lumotlarni yozing.



Badiiy adabiyot mutolaa etishni yanada yaxshilash, o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan mehrini orttirish, ko‘proq mustaqil ravishda badiiy asar o‘qishga jalb etish maqsadida, o‘quv yilining boshlanishida boshlang‘ich sinflar uchun alohida, 5-7 sinflar uchun alohida va 8-9-sinflar uchun alohida badiiy asarlar belgilangan, oyning boshlanishida sinflarga badiiy asarlar e‘lon qilinadi va oy davomida mutolaa etiladi. Oyning oxirgi haftasida o‘qilgan asar yuzasidan baxs-munozara o‘tkaziladi, mas‘ul o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan muammoli savollar va sahna ko‘rinishlari orqali o‘quvchilarning fikr-mulohazalari eshitiladi, test sinovlari orqali o‘qilgan asar yuzasidan bilimlari sinalladi, bu holat har oy davom etaveradi. Shu tariqa “eng yaxshi kitobxon” g‘olibi sinflar kesimida aniqlanadi. Maktab kutubxonasi badiiy adabiyotlar bilan doimiy tarzda boyitilib boriladi.

«Lahzada javob» usuli

Bu usulda o‘quvchilar berilgan savollarga tez sur‘atda beradi. Eng ko‘p to‘g‘ri javob bergan guruh g‘olib hisoblanadi.

Navoiy ijodi bo‘yicha 6-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Lahzalik aql charxi” usuli savollari, masalan, quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Alisher Navoiy tavallud topgan yil. (1441-yil)
2. Alisher Navoiy tug‘ilgan shahar. (Hiro‘t)
3. A.Navoiy otasining ismi. (G‘iyosiddin)
4. Yosh Alisherni hayajonga solgan asar. (“Mantiq ut-tayr”)
5. Navoiyning do‘sti. (Husayn Boyqaro).
6. Navoiyga homiylik qilgan hukmdor. (Abulqosim Bobur).
7. Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida qaysi shaharda tahsil olgan? (Samarqandda)
8. Nizomiddin Mir Alisherning taxalluslari. (Navoiy, Foniy)
9. Foniy so‘zining ma‘nosi. (O‘tib ketuvchi, vaqtincha)
10. Navoiyning ilk devoni qerda tuzilgan? (Samarqandda)



Adabiyot darslarida munozarali masalalarni hal etishda, bahs- munozaralar o'tkazishda o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida foydalanish mumkin.

F– **fikringizni** bayon eting.

S– fikringiz bayoniga **sabab** ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi **misol** keltiring.

U– fikringizni **umumlashtiring**.

Masalan, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani asosida «Zebining fojiali taqdiriga kim sababchi?» yoki A.Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani asosida «Kumushbibining umriga kim zomin bo'ldi?» mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon eting:

Fikr _____ Sabab _____

Misol _____ Umumlashtirish _____

O'quvchilar **«Bumerang» texnologiyasidan** foydalanib jadvalga joylashtiradilar. Bu usul ham bevosita o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mushohadaga undaydi.

A.Qodiriyning O'tgan kunlar romani	Romandagi «ota-ona orzusi» tufayli baxtsiz bo'lgan insonlarni yozing va izohlang.	

« Eng... Eng... Eng » usuli		
	Savol	Javob
1	O'zbek nasriy adabiyotida eng birinchi bo'lib kim roman yozgan?	
2	Turkiy tilda yirik hajmli adabiy-ma'rifiy asar yaratgan istadodli shoir kim?	
3	Eng birinchi bo'lib «Xamsa» yozgan shoir kim?	
4	Eng birinchi turkiy tilda «Xamsa» yaratgan shoir kim?	
5	Eng ko'p mumtoz adabiyot janrlarida ijod qilgan shoir?	
6	Birinchi o'zbek jurlanalisti kim?	
7	Qaysi asarda eng ko'p maqol qo'llangan?	
8	O'zbek adabiyotida yozilgan eng birinchi roman-dilogiya muallifi?	
9	Noma janrining asoschisi?	
10	Alisher Navoiy «Xamsa»sining eng birinchi dostoni?	

Shuningdek, o'zbek adabiyotining eng asosiy va dolzarb mavzularini **“Eng, eng, eng...” usuli** orqali o'rgatish samara beradi.

Quyida sizga aynan adabiyot darslarini qiziqarli tashkil etishda qo'llanadigan usullarni taqdim etishni joiz topdim.

Biz ustozlar zimmasiga farzand tarbiyasidek nozik masala turibdi, shunday ekan, erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli hamda faol ishtirok etishga qodir komil shaxsni tarbiyalashda kitoblardan yordam olsak, o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlar. “Xalq ta'limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b..
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimeriya .uz

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(8-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
